



UDK:913.3:30(575.1)

Bahodirjon MAXMUDOV

O'zbekiston milliy pedagogika universiteti o'qituvchisi, PhD

E-mail: b.maxmudov@nuu.uz

O'zbekiston Milliy universiteti professori, g.f.d N.Komilova taqrizi asosida

GEOKRIMINOLOGIYANING TARIXIY-GEOGRAFIK JIHATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada geokriminologiya (jinoyatchilik geografiyasi) bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tarixi, tarixiy-geografik jihatlari tahlil qilindi. Darhaqiqat geokriminologiya jinoyatlarning turli hududlarda sodir etilishi, jinoyatchilikka ta'sir etuvchi shart-sharoit va omillar, qisqa qilib aytganda jinoyatchilikning hududiy jabhalarini tadqiq etadi. Soha bo'yicha Yevropa, AQSh davlatlarida yirik masshtabli, MDH davlatlarida esa o'rta va mayda mashstabli tadqiqotlar juda ko'p olib borilgan. Afsuski, respublikamizda mazkur tadqiqotlar bo'yicha juda oz miqdorda ishlar qilingan. Ushbu maqolada sohada olib borilgan tadqiqotlar muallif tomonidan tahlil qilindi, tegishli xulosalar chiqarildi.

Kalit so'zlar: kriminologiya, geokriminologiya, geokriminogen vaziyat, sotsiologiya, jinoyatchilik geografiyasi, jinoyatchilik topografiyasi, jinoyatchilik ekologiyasi

ИСТОРИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ГЕОКРИМИНОЛОГИИ

Аннотация

В данной статье анализируются история и историко-географические аспекты исследований в области геокриминологии (географии преступности). Геокриминология, по сути, изучает совершение преступлений в различных регионах, условия и факторы, влияющие на преступность, короче говоря, территориальные аспекты преступности. В этой области проведено множество масштабных исследований в Европе и США, а также средних и малых в странах СНГ. К сожалению, в нашей республике подобные исследования крайне малочисленны. В данной статье автор проанализировал проведенные в этой области исследования и сделал соответствующие выводы.

Ключевые слова: криминалогия, геокриминалогия, геокриминогенная ситуация, социология, география преступности, топография преступности, экология преступности.

HISTORICAL AND GEOGRAPHICAL ASPECTS OF GEOCRIMINOLOGY

Annotation

This article analyzes the history and historical and geographical aspects of research in the field of geocriminology (geography of crime). Geocriminology, in essence, studies the commission of crimes in various regions, the conditions and factors influencing crime, in short, the territorial aspects of crime. In this area, many large-scale studies have been conducted in Europe and the USA, as well as medium and small ones in the CIS countries. Unfortunately, in our republic, such studies are extremely few. In this article, the author analyzed the studies conducted in this area and made the appropriate conclusions.

Keywords: criminology, geocriminology, geocriminogenic situation, sociology, geography of crime, topography of crime, ecology of crime.

Kirish. Jahonda aholi sonining tez sur'atlarda o'sishi, noqonuniy migratsiya jarayonlarining kuchayishi, ishsizlik va qashshoqlikning ortishi, transmilliy jinoiy tashkilotlarning faollashuvi natijasida jinoyatchilik ham yil sayin oshib bormoqda. Shu bois, BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (UNODC) tomonidan ishlab chiqilgan 2021-2025-yillarga mo'ljallangan strategik dasturi "ijtimoiy tenglik va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun kompleks chora-tadbirlar zarur"[15]ligi bilan bog'liq vazifalarning yechimiga yo'naltirilgan. Tegishli maqsadga erishish esa hududlarda qonun ustuvorligini mustahkamlash, kambag'allik va jinoyatchilikni kamaytirish, aholi bandligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq qilishni taqozo etadi.

Respublikamizda jamoat xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikni oldini olish va sog'lom ijtimoiy muhitni yaratish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilib, muayyan ijobiy natijalarga erishilmoqda. Xususan, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining o'n oltinchi maqsadida "Jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo'lgan shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish", o'n yettinchi maqsadida "Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlarini, inson qadr-qimmatini, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo'naltirish"[1] yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan. Fikrimizcha, yangidan yangi sohalarini tadqiq etishga qaratilgan ijtimoiy geografik tadqiqotlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Geokriminologiyaga oid maxsus nazariy-uslubiy va amaliy tadqiqotlarni xorij mamlakatlaridagi olimlardan A.Kettle, A.Guerry, E.Burgess, C.Shaw, H.McKay, J.Wilks, H.Herold, D.Herbert, D.Harvey, T.Eisenhardt, J.Synnott, A.Piscitelli, D.Johnson, H.Orsini, S.Chainey, MDH olimlaridan esa A.A.Gabiani, R.G.Gachechiladze, S.P.Lukniskiy, K.T.Rostov, S.V.Artyomenko, R.M.Skabara, A.D.Badov, A.V.Kulagin, K.Y.Sikach kabi olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Ushbu tadqiqotlarda jinoyatchilik geografiyasi sotsial geografiyaning ilmiy yo'nalishi sifatida nazariy jihatdan asoslangan, metodologik asoslari ishlab chiqilgan.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida kriminolog olimlar: M.X.Rustamboyev, Y.M.Karaketov, I.Ismailov, Q.R.Abdurasulova, I.Y.Fazilov, T.X.Xasanov, D.Y.Karaketova tomonidan ma'lum turdagi jinoyatlarga qarshi kurashishning muammolari, jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlarini tadqiq etilgan. A.S.Soliyev, Y.I.Ahmadaliyev, A.A.Qayumov, M.I.Nazarov, I.R.Turdimambetov, N.K.Komilova singari geograf olimlarning ilmiy ishlarida sohaga oid tadqiqotlar ko'rib chiqilgan.

Tahlil va natijalar. Ma'lumki, jinoyatlar qadim zamonlardan beri jamiyat rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq holda shakllangan. Qadim zamonlardan olimlarni "Insonlar nima uchun jinoyat sodir etadi?" degan masala qiziqtirib kelgan. Ushbu illatlar aholining ijtimoiy faoliyati va jamiyat farovonligiga to'siq bo'ladi.

Jinoyatchilik masalalarini o'rganish azaldan qadimgi faylasuflarning diqqat markazida bo'lgan. Xususan, Platon jinoyatlarning sabablarini tadqiq etishga, Aristotel esa aholining qonun oldida tengligiga alohida ahamiyat bergan. Sitseron va Seneka kabi Qadimgi Rim faylasuflari jinoyatlarni kelib chiqish sabablari va huquqbuzarlarni tasniflagan [11].

O'rta asrlarda Sharq uyg'onish davrining yetuk allomalari huquqshunoslik borasida benihoyat chuqur ilmga ega bo'lgan. Jumladan, Burhoniddin Al-Marg'inoniy yozgan to'rt jildli "Al-Hidoya" kitobi eng mo'tabar huquqiy qo'llanma sifatida ko'p asrlardan beri butun Islom dunyosi, ayniqsa, Markaziy Osiyo davlatlari, Turkiya va Arab mamalakatlari uchun eng ishonchli qo'llanma sifatida tan olingan. Ushbu kitob nafaqat musulmon olamidagi huquqshunoslarga, balki, Yevropa mamalakatlariidagi huquqshunos olimlar uchun ham huquqiy manba bo'lib xizmat qilmoqda [8].

Mashhur qomusiy olim Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida fozil shahar hukmdori adolat va uning uchun kurashuvchilarni e'zozlashi, o'z odamlari va o'zgalarga odillik ko'rsatishi kerakligi kabi hukmdorlarga xos xislatlar bayon etiladi. Shuni qayd etish lozimki, o'zbek millati o'zining juda boy an'analarga ega. Qadimda va hatto, yaqin o'tmishda ham aholi ijtimoiy muhitni yaxshilashga harakat qilgan, jinoyat sodir etganlarga qat'iy choralari ko'rgan. Masalan, bizning yurtimiz va umuman islom dunyosida o'g'rilik qilish, o'zgalar mulkini qasddan talon-taroj qilish juda kam uchraydigan holatlar bo'lgan. Bunga jamoa, shariat qoidalari ham yo'l qo'ymagan.

Tarixiy manbalar ko'rsatishicha, XX asr boshlarida kriminologiya fani vujudga keldi [5]. Kriminologiya – (lotin. *crime* – jinoyat va yunon *logos* – ta'limot so'zlaridan) – jinoyatchilik, uning sabablari va shart – sharoitlari, jinoyatchi shaxsi, jinoyatchilikka qarshi kurashish choralari tizimi va jinoyatchilik oqibatlarini to'g'risida fan. Birinchi marotaba ushbu atamani italiyalik olimlar Topinardi va Garofalo tomonidan 1885-yilda shu nomdagi monografiyasida qo'llanilgan [14].

Kriminologiya fanining yuzaga kelishiga jinoyatchilik borasida sotsiologik va statistik ma'lumotlarning ko'pligi, jinoiy holatlarning yomonlashuvi ta'sir ko'rsatdi. Bugungi kunga qadar kriminologiya fanida klassik, antropologik, sotsiologik, statistik kabi kriminologik yo'nalishlar shakllandi (1-jadval). Bu yo'nalishlar o'zaro yondashuvlari bilan bir biridan farqlanadi.

1-jadval

Kriminologiya fanida jinoyatchilikni o'rganishda vujudga kelgan yo'nalishlar

№	Yo'nalishlar nomi va yirik namoyondalari	Asosiy g'oyalari
1	Klassik (J.Bentham, C.Bekkariya, I.Kant va b.)	Mazkur maktab vakillari tadqiqotlarida jinoyatchilik - aholining erkin tanlovining natijasi sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, jinoyatga jazo tayinlash jarayonida adolatli bo'lish zarurligi, jazoni kuchaytirish orqali jinoyatlarning kamaytirish masalalari tadqiq etilgan.
2	Antropologik (E.Ferri, F.Gall, Ch.Lombroso va b.)	Ushbu yondashuv mohiyatiga ko'ra geokriminogen holat shakllanishida aholining ichki duyoqarashi, insonning g'avda tuzilishi, ichki ruhiy kechinmalari va biologik qobiliyatlari hal qiluvchi ahamiyatga ega.
3	Sotsiologik (R.Merton, T.Sellin, R.Garofalo, E.Durkheim, E.Fromm va b.)	Kriminologiya sohasida juda ko'p nazariyalar mazkur yo'nalish vakillari tomonidan yaratilgan. Hududdagi turli xil ijtimoiy omillar va geokriminogen muhit o'rganilgan.
4	Statistik (A.Guerry, M.Maltz, A.Kettle va b.)	Hududdagi statistik ma'lumotlar, qiyosiy tahlillar, jinoyat sodir etilishida muayyan qonuniyatlar aniqlanadi. Demak, jinoyat ma'lum statistik qonuniyatlarga bo'ysunadigan hodisa.

Jadval sohaga oid ilmiy adabiyotlar tahlili asosida muallif tomonidan tuzildi.

2009-yilda Rossiyada geokriminologiya bo'yicha yirik tadqiqot olib borgan A.Badovning ta'kidlashicha, A.Kettle va A.Guerry aynan birinchi bo'lib jinoiy-geografik tadqiqotlar olib borgan [6]. A.Kettle 1825-1830-yillar davomida Fransiyada to'plangan jinoyatchilik statistikasini matematik va kartografik usullardan keng foydalanib tahlil qilgan. Uning fikricha jamiyatda sodir bo'ladigan jarayonlar ma'lum qonuniyatlar orqali amalga oshadi.

A.Kettle bilan bir davrda yashagan A.Guerry jinoyatchilikda hududiy-statistik tahlillar olib bordi. Fransiyaning dastlabki jinoyatchilik kartasini tuzdi [4]. 1833 - yilda olim "Essai sur la statistique morale en France" (Fransiyada axloqiy statistika bo'yicha essay) nomli asarini nashr etdi. Olim fikricha, jinoiy faoliyatning eng yuqori cho'qqisi aholining 25-30 yosh guruhiga to'g'ri keladi. Uning tadqiqotlarida qashshoqlik hukm surayotgan joylarda jinoyatchilik darajasi yuqori bo'lmagan.

Jinoyatchilik va qashshoqlik o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishda ingliz tadqiqotchisi Charles Booth (1840-1916) xizmatlari katta. Olim 1886-yildan 1903-yilgacha London aholisining turmush sharoiti, qashshoqlik darajasini o'rgangan, tadqiqot natijalari sifatida qashshoqlik kartalarini yaratgan. Olim kartalarni yaratishda aholining moddiy (oziq-ovqat, kiyim-kechak) ta'minlanganligi, joyning ijtimoiy muhitiga ko'proq e'tibor qaratgan. Buning uchun Londonning har bir ko'chasiga tashrif buyuradi va geografik kuzatish, sotsiologik so'rovlar olib boradi. Shahardagi aholini 8 sinfga ajratadi, har sinfni rang bilan tasvirlaydi. Nisbatan boy, sharoiti qulay hududlarni qizil, pushti, aksincha bo'lgan hududlarni to'q qora rang bilan aks ettiradi [3, 359-b.]. Qora rangdagi hududlar o'sha paytda keng qo'llanilgan "rukeri" (rookery) deb atalgan hududlarga to'g'ri keladi. Rukeri uy-joylarning gavjumligi, tor ko'chalari va sanitariya sharoitlarining sifatsizligi yoki umuman yo'qligi bilan tavsiflangan. Hudud atmosferasini sanoat korxonalari (masalan, ko'mir zavodi) ko'p ifloslantirgan, aholi tomonidan shaharning ushbu qismlari yashash uchun noqulay joy deb baholangan. Rukeridagi arzon uy-joylar muhojirlar, o'g'rilar yoki fohishalik bilan shug'ullanuvchi ayollarni jalb qilgan.

Ch.Boothning tadqiqotlaridan ilhomlangan Chikago sotsiologiya maktabi (bu maktab "Chikago inson ekologiyasi maktabi" sifatida ham yuritiladi) vakillari: E.Burgess va R.Park (1925, 1967), C.Shaw hamda H.Makkay (1942) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarining sohaning rivojida o'rni beqiyos. Ular Chikago shahrining ijtimoiy muammolari, ekologik holatining jinoiy vaziyatga ta'sirini o'rgangan. Darhaqiqat, o'sha vaqtlarda Chikago AQSHning "jinoyatchilik poytaxti"ga aylangan, unda ko'plab ganster to'dalari faoliyat yuritgan. Tadqiqot natijalari asosida olimlar tomonidan shaharning ijtimoiy muhitidan kelib chiqqan holda ma'lum konsentrik zonalar ajratgan. Taklif etilgan zonalar besh qismdan iborat bo'lgan: biznes markazi, sanoat rayoni, o'tish zonasi, ishchilar va turar-joy rayoni [7].

C.Shaw hamda H.Makkay (1942) ushbu zonalarining jinoiy vaziyatiga e'tibor qaratdi. Jumladan, olimlar tomonidan biznes va sanoat rayoni oralig'i hamda o'tish zonasi eng yuqori kriminogen, yoshlar o'rtasida jinoyatlar salmog'i yuqori hudud ekanligi aniqlandi. Bunday holat rivojlanayotgan sanoat, turar-joy qurilishi bilan izohladi. Shuningdek, ushbu hududda uy-joy narxlarini arzon bo'lishi kuzatilgan. Natijada, hududda past malakali, kambag'al muhojirlar soni ko'pchilikni tashkil etgan, ular orasida uyushgan to'dalar soni ham anchagina bo'lgan.

C.Shaw hamda H.Makkay tomonidan "Juvenile Delinquency and Urban Areas" nomli maqolasida ijtimoiy institutlar faoliyati sustligi yoki umuman yo'qligi jinoyatlarni keltirib chiqaruvchi bosh omil sifatida qaralgan. Ya'ni mahalla jamoasi, diniy idoralar, ta'lim tizmining pastligi, qamrab olish darajasi past, mahalliy institutlar to'liq nazorat etolmaydi bu esa jinoyatga moyil insonlar uchun qulay hisoblangan.

XX asrning 40-yillarida yangi vujudga kelayotgan yo'nalishni nomlash va ilmiy asoslashga oid dastlabki ishlar vujudga keldi. Jumladan, amerikalik kriminolog Joseph Cohen 1941-yilda ilk bor "jinoyatchilik geografiyasi" terminini qo'llaydi [2, 29-b.]. J.Cohen olib borgan tadqiqot va ta'rifi soha tadqiqot doirasini to'laqonli ifodalamasada, lekin uning shakllanishi va rivojlanishida sezilarli iz qoldirdi.

1967-yilda amerikalik kriminolog J.Wilks hududning urboekologik va jinoiy holati orasida ma'lum bog'liqlikni aniqlagan. Tadqiqotlarni tahlil qilib jinoyatchilik ekologiyasi tushunchasini fanga kiritdi. Darhaqiqat, inson ma'lum bir makonda yashaydigan ongli mavjudot bo'lib, doimo tabiiy va ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida insonning xulq-atvori va xatti-harakatlariga ta'sir qiladi, uni o'zgartiradi, rivojlantiradi yoki aksincha.

XX asrning 60-70 yillarida Yevropaning bir qator davlatlari, jumladan, Germaniyada bino-inshoot, kvartira, do'kon, mehmonxona, shifoxonalarda sodir bo'lgan jinoyatlar manzarasini tahlil qilishga bo'lgan qiziqishlar kuchaydi. 1968-yilda nemis olimi H.Herold o'z tadqiqotida mintaqada xizmat ko'rsatish obyektlarining joylashuvi va insonning kundalik faoliyatini tadqiq etadi hamda jinoyatchilik topografiyasi atamasini qo'llaydi [13]. Haqiqatdan ham bugungi kunda mahallalarda bozor, ta'lim va tibbiyot muassasalari, avtovokzallar joylashuvining hududda sodir etilayotgan jinoyatlarga ta'siri beqiyos.

Keyinchalik jinoyatchilik geografiyasi masalalari bilan A.Mergen (1968), D.T.Herbert (1979), G.Pyle (1980), J.Hellmer (1981), D.Harvey (1996, 2009), T.Eisenhardt (2012), J.Synnott (2013), E.Aksoy (2017), A.Piscitelli (2018), D.Johnson (2018), H.F.Orsini (2018), S.Chainey (2021) kabi chet el olimlari shug'ullandilar.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda jinoyatchilikning mazmun-mohiyati, omillari yaxshi o'rganilgan. Lekin, sobiq Ittifoqda jinoyatchilik va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili e'tiborsiz qolgan. Sababi sotsialistik tuzumli jamiyatda jinoyatlar o'z-o'zidan yo'q bo'lib ketadi, degan fikr mavjud edi. XX asrning 60-yillarida tashkil etilgan Sobiq butunittifoq instituti tadqiqotchilari jinoyatchilikni o'rganishda geografik determinizm g'oyasini ilgari surdi. Ushbu davrda sobiq Ittifoq davlatlarida dastlabki jinoyatchilik geografiyasi bo'yicha monografiya yaratildi [9]. A.A.Gabiani, M.I.Didebuladze va R.G.Gachechilidze hududda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar jinoyatchilikka ta'siri yuqori ekanligini aniqlagan. Shuningdek, 1989-yilda S.P.Lukniskiy tomonidan sobiq Ittifoqda dastlabki jinoyatchilik geografiyasi bo'yicha dissertatsiya himoya qilindi.

Sobiq Ittifoq parchalanib ketganidan so'ng, jinoyatchilik geografiyasi MDHning alohida davlatlari doirasida rivojlanishda davom etdi. Masalan, Rossiyada K.T.Rostov, A.V.Kulagin, A.D.Badov, Ukrainada R.M.Skabara kabi olimlar tomonidan jinoyatchilik iqtisodiy va ijtimoiy geografik nuqtai-nazaridan o'rganilgan. Shaharlarni geokriminogen vaziyatini o'rganish masalalari S.V.Artyomenko (1993), D.V.Fedorenko (2000), S.A.Shotkinov (2003) kabi olimlar tadqiqotlarida uchraydi.

Mustaqillik yillaridan to hozirgi kungacha O'zbekistonda kriminologiya sohasidagi olimlar tomonidan muayyan turdagi jinoyatlarni oldini olish bilan bog'liq muammolar tadqiq etilgan. Jumladan, salomatlikka qarshi jinoyatlar M.Rustamboyevning, zo'ravonlikka aloqador jinoyatlar Y.Karaketovning, uyushgan jinoyatchilik I.Ismailovning, ayollar jinoyatchiligi Q.Abdurasulovning, odam savdosiga qarshi kurashish muammolari I.Fazilovning, o'g'rilik jinoyati T.Xasanovning, bezorilik D.Karaketovning tadqiqotlarida batafsil o'rganilgan.

Respublikamizda jinoyatchilik geografiyasi (geokriminologiya) to'g'risidagi dastlabki ilmiy maqolalar A.S.Soliyev va uning shogirdlari tomonidan e'lon qilingan. 2006-yilda A.S.Soliyev ilmiy rahbarligida A.A.Qayumov "O'zbekistonda jinoyatchilikning ijtimoiy-geografik jihatlarini" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Ushbu tadqiqot ishida mustaqillikdan 2004-yilgacha bo'lgan davrdagi jinoyatchilik O'zbekiston miqyosida tadqiq qilingan [8]. Mazkur tadqiqotda sodir etilgan jinoyatlarning o'ziga xos hududiy xususiyatlari hamda geokriminogen vaziyat o'rganilgan, uni ifodalovchi kartalar tuzilgan. Bundan tashqari jinoyatchilikning kelib chiqish sabablari Toshkent viloyatida joylashgan qattiq rejimli koloniyada jazo muddatini o'tayotgan mahkumlar orasida maxsus so'rovnoma orqali tadqiq etilgan.

Farg'ona viloyatining Qo'qon, Marg'ilon, Farg'ona kabi yirik shaharlarida giyohvand moddalar savdosi o'choqlari, uni joylashuv xususiyatlari, unga ta'sir etuvchi omillar bilan bog'liq masalalar M.Nazarovning sotsial tadqiqotlarida uchraydi [10, 183-b.]. Olim giyohvand moddalar savdosi ayrim etnik guruhlar, transport nuqtai nazaridan qulay mahallalarda rivojlanganiga ahamiyat berib o'tgan. Shuningdek, so'ngi yillarda sotsial geografik tadqiqotlar olib borayotgan I.Turdimambetov kabi olimlarni asarlarida jinoyatchilik geografiyasiga oid ishlar mavjud [12.].

O'zbekiston Respublikasida jinoyatchilik geografiyasiga oid dastlabki adabiyotlarni vujudga kelishi, o'quv jarayoniga tadbiq etilishida so'ngi o'n yillik muhim ahamiyat kasb etdi. Jumladan, "Inson geografiyasi" o'quv qo'llanmasi va "Sotsial va madaniy geografiya" darsligi tarkibida xulq-atvor va jinoyatchilik geografiyasining ba'zi masalalari ko'rib chiqilgan. Qayd etish joizki, mamlakatimizda jinoyatchilik geografiyasiga oid adabiyotlar juda kam, ishlanmalarni ko'paytirish zarurati mavjud.

Bugungi kunga qadar jinoyatchilik geografiyasining shakllanishi va rivojlanishida kriminologlar (J.Cohen, H.Herold, S.Chainey, S.Shotkinov) shuningdek, sotsiologlarning (E.Burgess, C.Shaw, H.McKay, J.Wilks) ham xizmatlari yuqori ekanligini ta'kidlab o'tish joiz. Shu jihatlarini e'tiborga olib muallif tomonidan jinoyatchilik geografiyasi bo'yicha tadqiqot olib borgan olimlar va ularning sohaga kiritgan asosiy tushuncha va nazariyalar keltirib o'tildi (2- jadval).

2-jadval

Jinoyatchilik geografiyasi bo'yicha tadqiqot olib borgan olimlar

№	FISH (mutaxassislgi)	Sohaga kiritilgan asosiy tushuncha va nazariyalar	Tadqiqot obyekti va vaqti
Uzoq xorij davlatlarida			
1	E.Burgess (sotsiolog)	"Shaharning konsentrik zonalarini" modeli	Chikago sh., 1925-y.
2	C.Shaw, H.McKay (sotsiolog, kriminolog)	Huquqbuzarlik zonasi, "Ijtimoiy tartibsizlik"	Chikago sh., 1929, 1942-yy.

3	J.Cohen (kriminolog)	Jinoyatchilik geografiyasi	AQSH, 1940-y.
4	J.Wilks (sotsiolog)	Jinoyatchilik ekologiyasi	AQSH, 1967-y.
5	H.Herold (kriminolog)	Jinoyatchilik topografiyasi	GFR, 1968-y.
6	D.Harvey (geograf)	Ijtimoiy adolat	Buyuk Britaniya, 1973-y.
7	H.Orsini (geograf)	Jinoyatchilik konsentratsiyasi	Marsel sh., 2018-y.
8	S.Chaine (kriminolog)	"Qaynoq nuqtalar"	Nyukasl sh., 2021-y.
MDH davlatlarida			
9	S.Lukniskiy (geograf)	Geokriminologiya	Rossiya, 1989-y.
10	S.Artyomenko (geograf)	Jinoyatchilik rayonlari	Minsk, Brest, Jodino sh., 1993-y.
11	K.Rostov (geograf)	Geokriminogen vaziyat	Sankt Peterburg sh., 1994-y.
12	S.Shotkinov (kriminolog)	Geokriminografiya	Irkutsk, Bratsk, Ulan - Ude sh., 2003-y.
13	R.Skabara (geograf)	Geokriminogen rayon	Lvov vil., 2003-y.
14	A.Badov (geograf)	Geokriminogen o'rin, "Geokriminal zonalar"	Rossiya, 2009-y.
15	K.Sikach (geograf)	Geokriminogen potentsial	Ukraina, 2016-y.
O'zbekiston Respublikasida			
16	A.Qayumov (geograf)	Geokriminogen vaziyat	O'zbekiston, 2006-y.

Jadval sohaga oid dissertatsiyalar va ilmiy adabiyotlar tahlili asosida muallif tomonidan tuzildi. Izoh: "—"qo'shtimoq esa fanga kiritilgan nazariyalarni ifodalaydi.

Xulosa va takliflar. Sohaga oid ilmiy manbalar tahlili asosida jinoyatchilik geografiyasining shakllanishi va rivojlanishi to'rt bosqichga ajratildi:

- *birinchi bosqich.* XX asrning yigirmanchi yillarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Mazkur bosqichda geokriminologik tadqiqotlar klassik, antropologik, statistik, sotsiologik kabi kriminologiyaning yo'nalishlari (maktablari) doirasida o'rganilgan. Jumladan, statistik maktab vakillari (A.Kettle, A.Guerry) tomonidan jinoyatchilikni tizimli va hududiy jihatlarini o'rgangan va ular tomonidan dastlabki jinoyatchilik kartalarini yaratgan (1833-y.). Charles Boothning London aholisi orasida o'tkazgan sotsial geografik tadqiqotlari qashshoqlik va jinoyatchilik o'rtasidagi bog'liqlik masalalarini yanada aniqlashtirdi. Biroq, ushbu izlanishlar geokriminogen vaziyat va jinoyatchilik geografiyasining shakllanishi uchun yetarli bo'lmagan.

- *ikkinchi bosqich* XX asrning 20-60 yillarini qamrab oladi. Mazkur davrda yirik masshtabdagi tadqiqotlar rivojlanishi natijasida ma'lum nazariy yutuqlarga erishildi, ma'lum qonuniyatlar aniqlandi. Mazkur bosqichda soha kriminologiya va geografiya qirrasidagi mustaqil tadqiqot yo'nalishi sifatida e'tirof etiladi. E.Burgess, C.Shaw, H.Makkay kabi sotsiolog va kriminolog olimlar tomonidan ma'lum nazariyalar yaratildi.

- *uchinchi bosqich* XX asrning 60-yillaridan 90-yillarigacha bo'lgan qisqa davrni o'z ichiga oladi. Mazkur bosqichda sotsial geografik tadqiqotlarga asosiy urg'u beriladi. Natijada, jinoyatchilik geografiyasiga oid asarlar ko'paydi. Soha tarkibida jinoyatchilik topografiyasi (1967-y) va jinoyatchilik ekologiyasi (1968-y.) kabi yo'nalishlar shakllandi. Bu borada ilk dissertatsiya ishi himoya qilindi (1989-y.) va geokriminologiya sohasi rasman ro'yxatdan o'tkazildi. Bu bosqichda J.Wilks, H.Herold, D.Harvey, A.Gabiani va R.Gachechilidze, S.Lukniskiy, M.Felson, L.Cohen kabi olimlar fanning rivojiga salmoqli hissa qo'shdi.

- *to'rtinchi bosqich* (1991-yildan keyingi davr). Bu bosqichda jinoyatchilikni o'rganishda GAT texnologiyalari, jumladan Arc GIS dasturining "Hot Spot Analysis", "Crime analysis" metodikalarini ishlab chiqilishi va keng qo'llanishi natijasida yangi qonuniyatlar aniqlandi. Mazkur bosqichda xalqaro miqyosda sodir etilayotgan jinoyat tur va guruhlarini sabablari ham ilgari davrdan keskin farqlandi. Bu davr narkomaniya, korrupsiya, terrorizm va boshqa jinoyat faoliyat avj olganligi bilan ajralib turadi. Olib borilgan tadqiqotlar miqyosi ham xalqaro, davlat, viloyat va mahalliy kabi to'rt yo'nalishda amalga oshirilmoqda. Takidlash o'rinliki, soha bo'yicha uzoq xorij davlatlarida sezilarli darajada ishlar qilingan, ammo respublikamizda bu boradagi ishlar biroz orqada. Shu bois mazkur sohadagi tadqiqotlarni yanada kuchaytirish foydadan holi emas.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, mazkur tadqiqot ishida jinoyatchilik geografiyasini shakllanishi, rivojlanishi bilan bog'liq tadqiqotlarni tarixan tarkib topgan to'rt bosqichga ajratildi, har bir bosqichning o'ziga xos xususiyatlari, farqli jihatlarini asoslandi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5841063>
2. Cohen J. The Geography of Crime.// The annals of the American Academy of Political and Social Science.// - New York, USA. Vol. 217(1), 29-37 p. <https://doi.org/10.1177/000271624121700105>
3. Kimball, M. A. London through Rose-Colored Graphics: Visual Rhetoric and Information Graphic Design in Charles Booth's Maps of London Poverty.// Journal of Technical Writing and Communication // 36(4), 353-381. <https://doi.org/10.2190/K561-40P2-5422-PTG2>
4. Orsini H.F. La concentration du crime et les caractéristiques de l'aménagement de l'espace urbain à Marseille. // Doctorat de philosophie (PhD). COMUE Université Côte d'Azur. – Marseille, France. 2018.
5. Zaripov Z.S., Yokubov A.S., Avanesov G.A va boshq. Kriminologiya: Darslik. /prof. Z.S Zaripov tahriri ostida/. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2008.- 420 b.
6. Бадов А.Д. География преступности в России в постсоветский период. // Дисс... на соис. учен. степ. докт. геогр. наук. – Краснодар, 2009. - 496 с.
7. Берджесс Э. У. Рост города: введение в исследовательский проект // Чикагская школа социологии: сб. переводов / РАН. ИНИОН. Центр социальных научно-информационных исследований.// - Москва: ИНИОН РАН. 2015. - 430 с.
8. Каюмов А.А. Ўзбекистонда жиноятчиликнинг ижтимоий-географик хилхатлари: Геогр. фан. номз. ... дис. - Т., 2006, - 155 б.
9. Лукницкий С.П. География преступности в РСФСР. (Опыт социально-географического исследования). // Автореф. дисс... на соис. учен. степ. кан. геогр. наук. – Ленинград, 1989. – 20 с.
10. Назаров М.И. Гиёхвандликни ижтимоий ҳодиса сифатида тадқиқ этишнинг айрим географик хилхатлари.// Ҳозирги замон географияси: назария ва амалиёт. Халқаро илмий - амалий конференция материаллари.// – Т., 2006. 183 – 184 б.
11. Сикач К.Ю. Географические факторы динамики преступности на Украине в 1990-2012 гг. // Дисс... на соис. учен. степ. кан. геогр. наук.. – Симферополь, 2016. - 213 с.

12. Турдимамбетов И.Р., Уразимбетова Х.Ю. Жиноятчилик ва уни тадқиқ қилишнинг географик хусусиятлари.// ҚДУ ахборотномаси. № 4 (46), – Nukus, 2020. 29-32 б.
13. Шнайдер Г.Й. Криминология // Г.Й. Шнайдер (пер.с нем. Ю.А.Неподаева); под ред. Л. О. Иванова // . – Москва: Изд. группа «Прогресс», 1994. - 504 с.
14. Юридик атамалар комусий луғати. /Масъул муҳаррир Ҳ.Р.Раҳмонкулов; Адабий муҳаррир: Б.А. Эшпўлатов // - Т.: «Шарқ», 2003. – 432 б.
15. <https://www.unodc.org/unodc/en/strategy/full-strategy.html>